

Turkiya mamlakatga kirish uchun yangi talablarni kiritdi

2021 27 Oktabr

14-oktabrdan boshlab, chet eldan Turkiyaga kelayotgan 12 yoshgacha bo'lgan yo'lovchilar SARS-COV-2 salbiy PZR-testini taqdim etmasdan qabul qilinadi. Eslatib o'tamiz, ilgari ushbu chora-tadbirlardan faqat 6 yoshgacha bo'lgan bolalar ozod qilingan edi.

Turkiyaga kelayotgan boshqa barcha yo'lovchilar o'zlari oxirgi emlashdan kamida 14 kun o'tganidan keyin to'liq emlash kursini tugatganligi to'g'risida amaldagi sertifikat yoki oxirgi 6 oy ichida COVID-19 dan sog'ayib ketganligini tasdiqlovchi hujjatlari bo'lishi shart. Ushbu ma'lumot Turkiya hukumati tomonidan e'lon qilindi.

«Turkiyaga kirayotganda 12 yoshgacha bo'lgan bolalar emlash sertifikatlari yoki PZR-test natijalarini taqdim qilishdan ozod qilinadi», – deyiladi bayonotda.

Ushbu sertifikat mavjud bo'lmagan taqdirda, yo'lovchiga Turkiyaga kelishidan 72 soat oldin amalga oshirilgan SARS-COV-2 PZR-testini salbiy natijasini yoki Turkiyaga kelishidan 48 soat oldin antitanachalarga topshirilgan ekspress-testini salbiy natijasini taqdim etish talab etiladi.

COVID-19dan to'liq emlash kursidan o'tmagan Turkiyaga kelayotgan yo'lovchilar 14 kunlik o'z-o'zini yakkalash rejimiga joylashtirilishlari mumkin.

Telegram: t.me/uzbekistanairways